

**TALABALAR AMALIYOT JARAYONIDA QANDAY FOYDA OLADI? AMALIYOT O'ZI  
NIMA UCHUN KERAK?**

**Sayfullayeva Ruxshona Qaxxor qizi**

*2005-yil 18-iyulda Sirdaryo viloyati Guliston shahrida tavallud topgan. Hozirda O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti XT-3 ingliz fakulteti I bosqich talabasi. Bir nechta xalqaro va respublika antologiyalar muallifi, Guliston tuman koordinatori, EVH a'zosi.*

**Xudoyqulova Xusnora Odiljon qizi**

*2005-yil 18-noyabrda Sirdaryo viloyati Guliston shahrida tavallud topgan. Hozirda O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti XT-1 ingliz fakulteti I bosqich talabasi. Bir nechta xalqaro va respublika antologiyalar muallifi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, talabalarning amaliyot o'tashining bir qancha foydali taraflari sanab o'tiladi. Misol uchun, ular dars mobaynida o'rgangan bir qancha metodlarini amaliyotda sinab ko'nikma hosil qilishadi.*

**Kalit so'zlar:** *Talaba ,amaliyot ,darslik, tajriba, metod, o'quvchilar bilan munosabatga kirishish, ko'nikma hosil qilish.*

Har bir davlatda ta'lif tizimi uchun katta istilohlar amalga oshirilmoqda ,shu jumladan aynan oliy ta'lif sohasida ham sezilarli darajada o'zgarishlar yuz bermoqda.bu masalalar o'rtaida yuqori kurslarning amaliyot o'tashi alohida ajralishi tabiiy holatdir.Amaliyot bo'lishi shart va majburiy bo'lgan ishdir ,chunki u bizga nazariy olgan bilimlarimizni mustahkamlashga hamda ,o'qiyotgan sohamizda o'z o'rnimizga ega bo'lishimiz uchun kerak.Harakatsiz harajat nolga teng degan maqol buning ayni isbotidir.Hozirgi kunda amaliyot o'tashni mukammallashtirish va uning sifatini oshirishga doir xatti harakatlar amalga oshmoqda.Chunki zamon talabi oshib bormoqda va yosh avlod ham nazariya emas ,balki amaliyotning roli ish jarayonida o'z kuchiga egaligini tushunib bormoqda.



Amaliyot jarayonida talabalar ko'plab metodlarni, hamda o'quvchilar bilan qanday ishlash kerakligini o'rghanadi. Har bir darsda oldin takrorlanmagan usulda darsni tashkil qilishadi. Masalan, "snow ball" metodi-- bu o'yinda o'quvchilar aylana shaklida turib olishadi va mavzu yuzasidan rasm tushirilgan qog'ozlarni koptok shakliga keltirib, musiqa qo'yilganda bir biriga otishadi, musiqa to'xtagach qo'llarida qolgan koptoklarini ichini ochib, u inglizchada qanday nomlanishini aytishi kerak bo'ladi.



"Test your luck" --qopchaga kesilgan harflar solinadi. Doskaga chiqqan bola biror harfni ichidan oladi va iloji boricha shuu harfga ko'proq so'z topadi.

"What's hiding"--doskaga kattaroq so'z yoziladi va har bir bola shu so'z ichidan boshqa kichik so'zlarni topishi kerak.

"Guess"--bolalar o'tilgan mavzu bo'yicha doskaga rasm chizadi. Qolganlar esa uni topadi.

"Change" --koptok, o'yinchoq yoki tayoqcha ishlatish mumkin. Shu narsalardan birini berib biror so'z aytildi. E.g. a doll. U bola shu so'zni ko'plik shakliga (plural form) ga o'zgartirib qaytarib beradi. Hammasi bilan shunday takrorlash mumkin.



Bir so'z bilan aytganda, amaliyot talabalar uchun zaruriy hisoblanadi. Bu jarayonda talaba darsda o'rgangan metodlarini amaliyotda qo'llashni, bolalar bilan munosabatga kirishishda yordam beradigan psixikani o'rganadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.bilim.uz
- 2.<https://uzedu.uz>